

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срождидинова Зарина Хайриiddиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
IJTIMOYIY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN O'RTA QATLAM" MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Jo'raqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna	
O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI	208
Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	214
Usmanov Gafurjon Shavkatovich	
QURILISHDA ISHLAB CHIQRISH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINING RIVOJLANISHI	220
Buriyev Xakim Toshimovich, Usmanov Ilxom Achilovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIYALARI	225
Xolov Sherali Axrorboyevich	
2010-2024-YILLARDA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIKNI INVESTITSIYALASHNING EKONOMETRIK TAHLILI	229
Ashurov Shuhratbek Quddat o'g'li	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI	233
Sherbekova Kamola Norbekovna	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGI DARAJASI VA UNI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	243
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich	
MARKAZIY BANK KURS SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	249
Saydullayev Nodirbek Narzullaevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SALOHİYATI VA MUAMMOLARI	258
Raupov Shuxrat Soyibovich	
ЭКОТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	264
Абидова Дилфуза Игамбердиевна, Рахматуллаева Зулайхо Хасан кизи	
DIGITAL ECONOMY AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: BUSINESS CHANGE IN THE REGIONS	270
Abdullayev Muzaffar Abdujabbarovich	



QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHDA IOT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	273
Mirzaev Dilshod Artikovich	
ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА	279
Касимова Наргиза Сабитджановна	
YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	284
Ismoyilova Mahliyo Oybek qizi	
BOSHQARUVDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR (OLIV TA'LIM MISOLIDA).....	289
Karievva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISHNING AMALDAGI HOLATI VA ASOSIY TENDENSIYALARI.....	295
Qurbonov Odilbek Ro'zmatovich	
O'ZBEKISTONDA SPORT FEDERATSIYALARI VA ASSOTSIATSIYALARINI SAMARALI BOSHQARISH TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'LLARI	302
Umed Farmonkulovich Radjabov	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY MEKANIZMNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	307
Mullayeva Mexrangiz Axtam qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	313
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Muradova Nazira Raximjanovna	
RAQAMLI MARKETING VA ONLAYN PLATFORMALAR ORQALI EKOTURISTIK MAJMUALARNI OMMALASHTIRISH TRENDI	318
Xolmatova Parvina Asliddin qizi	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MA'MURCHILIGI STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI VA ULARNI YECHIMLAR	323
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
РАЗВИТИЕ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА КАК ФАКТОР РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	327
Бахтиёрров Худайберган Хамдам угли	
MAHALLIY BUDJETLARDA TRANSFERTLARGA QARAMLIK DARAJASINI BAHOLASH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	335
Xudoyqulov Hamidjon Abdullayevich	
QORAQALPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI BOSHQARISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	342
Tajibaev Berdax Asqarbay uli	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	347
Ashurova Maftuna Ortiq qizi	
STRATEGIC DIRECTIONS FOR INCREASING CAPITAL EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS: DIGITALIZATION AND RISK MANAGEMENT INTEGRATION	352
Sadullaeva Mokhinur Aziz kizi	
TECHNOLOGY MANAGEMENT AND SME INTERNATIONALIZATION: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	358
Abduxafizova Madinabonu Mirabbos qizi	
TA'LIM SIFATINI BAHOLASH MEZONLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....	363
Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich	
SMART UNIVERSITET KONSEPSIYASI ASOSIDA REYTING VA RAQOBATBARDOSHLIKNI INTEGRAL BOSHQARISH	371
Xudoyqulov Husen Ahadovich	



BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY VA XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA MOLIVAVIY HISOBOT 1-SHAKLINING QIYOSIY TAHLILI	379
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
SUG'URTA BOZORINING RAQAMLI RIVOJLANISHIDA NAZARIY QARASHLAR	384
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	



SUG'URTA BOZORINING RAQAMLI RIVOJLANISHIDA NAZARIY QARASHLAR

G'oziyeva Aziza Abdusalomovna

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0000-0002-5001-4724

Annotatsiya. Maqolada sug'urta bozorida raqamli loyihalarni joriy etishning nazariy asoslari hamda sug'urta tizimi va sug'urta mahsulotining iqtisodiy mohiyati tahlil qilingan. Sug'urta tizimining shakllanishi va rivojlanishidagi ilmiy yondashuvlar, xorijiy olimlarning qarashlari asosida sug'urta tizimining mazmuni, uning iqtisodiy va institutsional xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, sug'urta mahsuloti tushunchasi, uning tuzilmasi va sug'urta bozorida o'rni ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqotda sug'urta bozorining iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatidagi o'rni, sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab va taklif shakllanishi hamda sug'urta mahsulotining raqobatbardoshligini ta'minlovchi omillar tahlil qilingan. Olib borilgan tahlillar asosida sug'urta tizimini takomillashtirish, sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish va raqamli loyihalarni joriy etishning ahamiyati bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta bozori, sug'urta tizimi, sug'urta mahsuloti, sug'urta xizmatlari, sug'urta munosabatlari, raqamli loyihalar, risklarni boshqarish, sug'urta fondi, sug'urta kompaniyalari, sug'urta infratuzilmasi.

Abstract. The article analyzes the theoretical foundations for the implementation of digital projects in the insurance market, as well as the economic essence of the insurance system and insurance products. Based on scientific approaches and the views of foreign scholars, the content of the insurance system, its economic and institutional features are revealed. The concept of an insurance product, its structure, and its role in the insurance market are also scientifically substantiated. The study analyzes the role of the insurance market as a system of economic relations, the formation of demand and supply for insurance services, and the factors ensuring the competitiveness of insurance products. Based on the conducted analysis, scientific conclusions are formulated regarding the importance of improving the insurance system, developing the insurance services market, and implementing digital projects.

Key words: insurance market, insurance system, insurance product, insurance services, insurance relations, digital projects, risk management, insurance fund, insurance companies, insurance infrastructure.

Аннотация. В статье проанализированы теоретические основы внедрения цифровых проектов на страховом рынке, а также экономическая сущность страховой системы и страхового продукта. На основе научных подходов и взглядов зарубежных ученых раскрыто содержание страховой системы, ее экономические и институциональные особенности. Также научно обоснованы понятие страхового продукта, его структура и роль на страховом рынке. В исследовании проанализирована роль страхового рынка как системы экономических отношений, формирование спроса и предложения на страховые услуги, а также факторы, обеспечивающие конкурентоспособность страхового продукта. На основе проведенного анализа сформулированы научные выводы о значении совершенствования страховой системы, развития рынка страховых услуг и внедрения цифровых проектов.

Ключевые слова: страховой рынок, страховая система, страховой продукт, страховые услуги, страховые отношения, цифровые проекты, управление рисками, страховой фонд, страховые компании, страховая инфраструктура.

KIRISH

Sug'urta bozorida raqamli loyihalarni joriy etishning asosiy sharti sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning mavjud bo'lishi va sug'urtalovchilar bu talabni qondirish imkoniyatiga ega bo'lishlari bilan tavsiflanadi. Sug'urta bozorida raqamli loyihalarni joriy etishni nazariy jihatdan tadqiq etishda sug'urta va sug'urta faoliyatiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, sug'urta jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qiluvchi samarali vosita sifatida insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan. Sug'urta munosabatlarini rivojlantirish zamonaviy iqtisodiy tizimlar faoliyatini olib borishda strategik muhim vazifa hisoblanadi. Barqaror sug'urta tizimi milliy iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantiradi. Shu munosabat bilan avvalambor milliy iqtisodiyotdagi moliyaviy xizmatlar bozorining rivojlanishiga qo'shimcha investitsiya resurslarini jalb qilish, sug'urta sohasida bozor munosabatlarini rivojlantirish bilan birga sug'urta tizimini shakllantirish va rivojlantirish masalalarini o'rganish bo'yicha metodologik tamoyillarni aniqlab olish zarurati tug'iladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotda ko'plab tadqiqotlar sug'urta bozori rivojlanishining miqdoriy ko'rsatkichlari va sug'urta munosabatlarini tartibga solish usullarini tahlil qilish bilan bog'liq. Sug'urta tizimini tadqiq qilish



masalalari yetarlicha o'rganilmagan. Shunga qaramasdan, xorijiy mualliflarning "sug'urta tizimi" atamasining ta'rifiga alohida e'tibor berish zarur, deb hisoblaymiz.

V.V. Shaxov sug'urtalash tizimini ushbu iqtisodiy muhitda faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyalarining davlat nazorat qiluvchi organi bilan o'zaro bog'liqligidagi munosabatlarning yig'indisi sifatida ta'riflaydi (Shaxov V.V., 2001). Muallif sug'urta tizimining asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatadi: tadbirkorlarga ishlab chiqarish yoki savdo jarayonining uzluksizligida ma'lum kafolatlarni ta'minlaydigan sug'urta va maslahat xizmatlari to'plami, individual mijozlarga kundalik va ishonchli sug'urta xizmat ko'rsatishini taqdim etish.

S.L. Efimov sug'urta tizimini sug'urta huquqiy munosabatlari tashkil etilishining davlat-huquqiy shakli sifatida ta'riflaydi. U davlat sug'urta monopoliyasi yoki erkin sug'urta bozori orqali ifodalanishi mumkin (Efimov S.L., 1996).

S.V. Ermasov va N.B. Ermasovalarning qayd etishlaricha, sug'urtalashning asosiy tamoyillari ichida sug'urta tizimining faoliyat yuritishi iqtisodiy tamoyillari va sug'urtaning huquqiy munosabatlari amalga oshirilishi tamoyillarini farqlash lozim (Ermasov S.V., Ermasova N.B., 2004). Sug'urta tizimining faoliyat yuritishi iqtisodiy tamoyillari ichida mualliflar sug'urta manfaati mavjudligi tamoyili, sug'urtaning riskliliigi tamoyili va ekvivalentlik tamoyilini ajratib ko'rsatadi. Sug'urta tizimi budjet va bank-kredit tizimlari o'rtasida oraliq o'rin tutadi. Tarmoq yo'nalishi belgisiga ko'ra sug'urta tizimi quyidagi tarmoqlarga bo'linadi: ijtimoiy sug'urta, shaxsiy sug'urta, mulkiy sug'urta, javobgarlik sug'urtasi va tadbirkorlik risklarini sug'urtalash.

E.F. Dyujikovning qayd etishicha, milliy sug'urta tizimining tuzilishi qonunchilik bazasini shakllantirish, sug'urta faoliyati ustidan davlat nazoratini tashkil etish, sug'urtalanuvchilarga rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarining berilishi hamda milliy sug'urta tizimining xalqaro sug'urta bozoriga bosqichma-bosqich integratsiyasini o'z ichiga oladi (Dyujikov E.F., 2000).

O.A. Tarakusyak sug'urta tizimini sug'urta bozori orqali tadqiq etadi va uning murakkab, ko'p omilli, dinamik, tegishli tarzda tuzilmaga ega, ochiq hamda davlatdagi umumiy iqtisodiy vaziyat va siyosatga bog'liq tizim ekanligini qayd etadi (Tarakusyak A.O., 2003).

Kishilar o'rtasida bunday munosabatlar tizimining paydo bo'lishi uning bir qator risklar bilan bog'liqligi bilan izohlanadi. Bu risklar bozor munosabatlari subyektlarining xo'jalik faoliyati natijalariga zarar yetkazishi mumkin.

V.I. Plis ham sug'urta tizimini sug'urta bozori nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadi. U sug'urta tizimini turli tarkibiy tuzilma bo'limlarini qamrab olgan, birlamchi bo'limi sug'urta kompaniyasi bo'lgan murakkab integratsiyalangan tizim sifatida ta'riflaydi (Plis V.I., 2005). Muallif, shuningdek, jahon sug'urta tizimi tushunchasini ajratib ko'rsatadi va uning o'ziga xos xususiyatlarini qayd etadi.

V.D. Bazilevich va K.S. Bazilevich sug'urta tizimini sug'urta himoyasi tizimining majmuasi sifatida ta'riflaydi (Bazilevich V.D., Bazilevich K.S., 2005).

Aleksandrova M.M. sug'urta tizimini sug'urta munosabatlari subyektlari o'rtasida javobgarlikni risklar bo'yicha taqsimlash uchun qo'llaniladigan sug'urtalash usullari sifatida ta'riflaydi (Aleksandrova M.M., 2002). Sug'urta tizimining shakllanishi va rivojlanishi masalalariga bag'ishlangan asarlarning tahlili "sug'urta tizimi"ning iqtisodiy mazmunini tadqiq etishda uchta asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida sug'urta bozorining raqamli rivojlanishiga oid ilmiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va mantiqiy umumlashtirish usullari yordamida tahlil qilinib, sug'urta bozorining raqamli transformatsiya jarayonlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunga kelib "sug'urta tizimi" va "milliy sug'urta tizimi" atamaları tobora ko'p adabiyotlarda uchramoqda. Olib borilgan tahlillar natijasi "sug'urta tizimi" iqtisodiy mohiyatini o'rganishning uchta asosiy yo'nalishini aniqlash imkonini berdi.

1. Birinchi yo'nalishda sug'urta tizimi (V.V. Shaxov, A.O. Tarakusyak, V.I. Plis, M.A. Grushanina) murakkab, ko'p omilli tizim sifatida ko'rib chiqiladi va unda sug'urta tashkilotlari asosiy tuzilma hisoblanadi (Shaxov V.V., 2001; Tarakusyak A.O., 2003; Plis V.I., 2005; Grushanina M.A., 2004). Sug'urta tizimi riskliliigi tufayli murakkab hisoblanadi va uning o'ziga xosligi shundaki, u bir tomondan turli risklardan himoya vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan iqtisodiy agentlarning investitsion faolligida namoyon bo'ladi. Ammo hozirda bundan tashqari tizimning amal qilishi, davlatning tartibga solish jarayonlari va sug'urta tizimining o'zini o'zi boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish asoslarini ham hisobga olish kerak. Shuni aytib o'tish joizki, sug'urta tizimining iqtisodiy mazmunini faqatgina sug'urta bozori nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish yetarli emas.

2. Ikkinchi yo'nalishda sug'urta tizimi sug'urta faoliyati ustidan davlat nazorati va o'zini o'zi tartibga solish jarayonlarini tashkil etish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi (S.L. Efimov, E.F. Dyujikov, S.V. Ermasov,



N.B. Ermasova, E.V. Kolomin, A.A. Sigantov, M.D. Kovalski, V.T. Belinski, D.U. Valchej) (Efimov S.L., 1996; Dyujikov E.F., 2000; Ermasov S.V., Ermasova N.B., 2004; Kolomin E.V., 2003; Sigantov A.A., 2004; Kovalski M., 2004; Belinski V., 2004; Valchej D., 2004). Ushbu yo'nalishning o'ziga xos xususiyati unda sug'urta tizimini tartibga solish va davlat tomonidan qabul qilinadigan normativ hujjatlar mavjudligida aks etadi. Shu bilan birga iqtisodiyotda sug'urta tizimining mohiyatini yanada to'liqroq ochib berish talab etiladi.

3. Uchinchi yo'nalishda sug'urta tizimi sug'urta munosabatlari subyektlari o'rtasida risklar javobgarligi bo'yicha majburiyatlarni olish uchun sug'urta turlari to'plami sifatida ko'rib chiqiladi (V.D. Bazilevich, K.S. Bazilevich, M.M. Aleksandrova) (Bazilevich V.D., Bazilevich K.S., 2005; Aleksandrova M.M., 2002). Ushbu tavsif sug'urta tizimini risklarni taqsimlash hamda mulkiy va majburiy sug'urta turlari bo'yicha majburiyatlarni olish xususiyatlarini aks ettiradi. Shunday qilib, sug'urta tizimini o'rganishda yuqorida keltirilgan uch yo'nalish ham sug'urta tizimini qisman aks ettiradi.

Amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko'ra sug'urta tizimi uzluksiz takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlashda qulay shart-sharoitlar yaratish, iqtisodiy agentlar mulkiy manfaatlarini sug'urtaviy himoya qilish uchun sug'urta fondini shakllantirish va taqsimlash bo'yicha iqtisodiy munosabatlarning murakkab majmui hisoblanadi. Sug'urta tizimi sug'urta turlari va tamoyillari hamda infratuzilmasini o'z ichiga oladi. Sug'urta tizimi sug'urta tashkilotlari va sug'urtalanuvchi o'rtasida qonun hujjatlarida tartibga solinadigan iqtisodiy munosabatlarning bir turi bo'lib, u muayyan hodisalar (sug'urta hodisalari) yuz bergan hollarda sug'urtalanuvchilarning mulkiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmdir.

Sug'urta tizimini kengroq talqin qiladigan bo'lsak, u ijtimoiy, shu jumladan pensiya sug'urtasi, uzoq muddatli jamg'arish funksiyasiga ega sug'urta turlari, shuningdek o'zaro sug'urta qilishni ham nazarda tutadi. Sug'urta tizimi mexanizmining amal qilishi sug'urta munosabatlari ishtirokchilarining makro, mezo va mikro darajadagi o'zaro munosabatlari jarayonidir. Ushbu mexanizm sug'urtalashni amalga oshirish yo'llari, usullari va vositalarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston sug'urta tizimini tartibga solishda asosiy qonuniy hujjat O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 52-bobi va 2002-yil 5-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni hisoblanadi. Ushbu qonuniy hujjatlarda sug'urta tizimiga ta'rif berilmagan.

Sug'urta himoyasi sug'urta xizmatlari iste'molchilarining mulkiy manfaatlarini himoyalash bo'yicha chora-tadbirlarning majmuasi bo'lib, u shakllantirilgan sug'urta fondi hisobiga zararni qoplash yo'li bilan ta'minlanadi. Sug'urta kompaniyasi tomonidan ma'lum sug'urtalash turi doirasida uni mijozga taklif etish va sotish maqsadida ta'minlanadigan sug'urta himoyasi sug'urta mahsuloti sifatida rasmiylashtiriladi.

Sug'urta mahsuloti iste'molchiga sug'urta bozorida taklif etiladigan sug'urta xizmatlari to'plamidir. Iqtisodiy adabiyotda sug'urta mahsulotining turli xil ta'riflari mavjud. "Sug'urta mahsuloti" atamasining asosiy ta'riflarini ajratib ko'rsatamiz.

Mualliflar V.B. Gomel va D.S. Gulentalarning "sug'urta mahsuloti" atamasini talqin etishlari diqqatga sazovor. Ular sug'urta mahsulotini turli tasodifiy va ehtimoliy (ko'pincha salbiy bo'lgan) tabiiy va ijtimoiy holatlarning oqibatlaridan iqtisodiy himoyalashni amalga oshirish bo'yicha inson faoliyatining natijasi sifatida ta'riflaydi (Gomel V.B., Gulental D.S., 2000). Sug'urta mahsuloti sug'urta xizmati shaklida namoyon bo'ladi.

R.T. Yuldashev sug'urta mahsulotini sug'urta kompaniyalarining amaliy faoliyati orqali ko'rib chiqadi va uni hujjatlar to'plami shaklida ifodalangan sug'urtalashning muayyan turini ishlab chiqishning yakuniy natijasi sifatida ta'riflaydi (Yuldashev R.T., 2000).

X.M. Shennaev va G.T. Xalikulova "Sug'urta marketingi" o'quv qo'llanmasida sug'urta mahsulotini sug'urtalanuvchiga sug'urta shartnomasi tuzish orqali taqdim etiladigan asosiy va yordamchi xizmatlar yig'indisi sifatida ta'riflaydilar (Yuldashev R.T., 2000).

Sug'urta mahsuloti tarkibidan uning asosiy xususiyatlarini — beriladigan kafolatlar, sug'urta summalari, franshizalar va narxni o'zida mujassam etgan "netto-stavka"ni shartli ravishda ajratib ko'rsatish mumkin.

Fikrimizcha, sug'urta mahsulotini yuqorida keltirilgan xususiyatlar to'plami shaklida ko'rib chiqish yetarli bo'lmaydi. Sug'urta mahsuloti iqtisodiy agentlarga ularning mulkiy manfaatlarini himoyalash uchun taklif etiladigan sug'urta xizmatlarining to'plamidir.


Sug'urta munosabatlari rivojlanishining zamonaviy amaliyotini hisobga olib, sug'urta mahsulotini sug'urta kompaniyalari bozorda mijozlarga taklif etadigan sug'urta xizmatlarining majmui sifatida ta'riflashni taklif etamiz. Sug'urta risklarining ro'yxati sug'urta mahsulotining umumiy konsepsiyasiga javob berishi lozim. Sug'urta mahsulotining bozorning raqobat muhitiga ta'siri darajasi uning tuzilmasi bilan belgilanadi. Sug'urta mahsulotining tuzilmasi sotish rejalashtirilayotgan hududning iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy vaziyatiga qanchalik mos kelsa, sug'urta mahsulotining sug'urta xizmatlari bozoridagi roli va ahamiyati shunchalik yuqori bo'ladi. Sug'urta mahsulotining ishlash tamoyillarini aniqlash sug'urta mahsulotini sotish kanallarini tashkil etish, servis ko'maklashuvini o'z ichiga olgan sug'urta mahsuloti hayotiy davrining asosiy bosqichlarini tizimli tahlil qilish va sug'urta mahsulotining tuzilmasini aniqlashga imkon beradi.



Sug'urta mahsulotini ishlab chiqish va uni boshqarish uchun sug'urtalovchi tomonidan beriladigan kafolatlarining tavsifi, sug'urta summalarining miqdori, sug'urtalash qiymati, franshizaning miqdori, sug'urtalash muddati va hokazolarni o'z ichiga olgan aktuar yondashuvlardan foydalaniladi. O'ta murakkab va jozibador bo'lgan sug'urta mahsuloti yaratilishi mumkin, lekin shunga qaramay unga talab bo'lmasligi mumkin. Aksincha, sodda va shaxsiy muammolarni hal qiluvchi sug'urta mahsulotlari dolzarbligi yoki ommabopligi tufayli ancha samarali bo'lishi mumkin.

Sug'urta mahsulotini sotish sug'urta kompaniyasining bozordagi strategiyasi va taktikasiga muvofiq amalga oshiriladi. Sug'urta mahsulotining aholining ma'lum toifasi orasida talab mavjud bo'lishiga ta'sir etuvchi omillari hamda sug'urta mahsulotining taklifiga ta'sir etuvchi va uning sug'urta bozorida o'zni hamda ahamiyatini belgilab beruvchi omillar tahlil qilinadi. Sug'urta mahsulotini ishlab chiqish to'g'risida boshqaruv qarorining qabul qilinishi hamda keyingi rejalashtirish va amalga oshirish uchun vazifalarning qo'yilishi sug'urtalashga bozor (yoki ijtimoiy) ehtiyojini ajratib ko'rsatish hamda uning sharoitlari va imkoniyatlarini tahlil qilish zaminida amalga oshiriladi. Bu jarayon sug'urta kompaniyasining faoliyati strategiyalarini majmuaviy ta'riflashda o'z aksini topadi.

Sug'urta mahsulotining tuzilmasi quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: sug'urta shartlari va sug'urta mahsulotini rasmiylashtirish. Sug'urta shartlari eng muhim tarkibiy qism hisoblanadi va sug'urta mahsulotini rejalashtirish bosqichida belgilanadi. Sug'urta shartlari texnik va iqtisodiy xususiyatlarga bo'linadi (1-rasm).



1-rasm. Sug'urta bozorida sug'urta mahsulotining tuzilmasi¹

1 Manba: muallif ishlanmasi.



Sug'urta mahsulotining raqobatbardoshligini bozor belgilab beradi. Sug'urta xizmatlari bozorining faoliyat yuritishi iqtisodiy adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Shuni qayd etish lozimki, zamonaviy iqtisodiy tafakkurda mavjud bo'lgan sug'urta bozorining turli talqinlarini tahlil qilish ularni ikkita asosiy guruhga birlashtirish imkonini beradi.

Sug'urta bozori sotuvchi va mijoz o'rtasida sug'urta mahsulotiga bo'lgan talab va taklif asosida shakllanadigan hamda oldi-sotdi jarayonlarini o'z ichiga olgan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir (A.G. Zagorodniy, G.L. Voznyuk, A.K. Shixov, E.V. Kolomin) (Zagorodniy A.G., Voznyuk G.L., 2002; Shixov A.K., 2000; Kolomin E.V., 2003).

Sug'urta bozoriga sug'urta himoyasi oldi-sotdi obyekti bo'lib namoyon bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy muhit sifatida ta'rif beriladi (V.V. Shaxov, V.D. Bazilevich, K.S. Bazilevich, R.T. Yuldashev, V.I. Plis) (Shaxov V.V., 2001; Bazilevich V.D., Bazilevich K.S., 2005; Yuldashev R.T., 2000; Plis V.I., 2005).

Sug'urta bozorining u yoki bu talqini yuzasidan munozaralarning asosi mualliflarning iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy, moliyaviy jihatlarini birga umumlashtirishga intilishi ekanligini qayd etish lozim. Shu jihatdan sug'urta bozorini bir necha jihatdan talqin etish lozim.

Sug'urta bozori murakkab iqtisodiy tizimdan iborat bo'lib, unda bozor infratuzilmasi asosida faoliyat yuritiladi hamda sotuvchilar taklifiga javoban sug'urta mahsulotlari xaridorlari tomonidan talab shakllanadi.

Sug'urta bozori rivojlanishining obyektiv asosi zarar ko'rgan shaxslarga ularning hayotida turli xil risklar yuzaga kelganda moddiy yordam ko'rsatish orqali qayta ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash zarurligidan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug'urta bozori faoliyatining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Birinchidan, bu taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlaridir, bunda sug'urta kompaniyalari asosiy ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati sug'urta fondlarining sug'urta badallari hisobiga shakllanishi hamda ulardan keyinchalik zararni qoplash uchun foydalanilishini ko'zda tutadi. Ikkinchidan, sug'urta xizmatlari iste'molchilarining riskni taqsimlashda ishtirok etishi sug'urta bozorining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Sug'urta xizmatini sotib olib, iste'molchi o'z mulkiy manfaatlarini buzilgan holda unga yetkaziladigan zararni to'lab berish kafolati bilan ta'minlanadi. Uchinchidan, sug'urta xizmatining tannarxi faqat sug'urta to'lovlari va servis xizmatlari tashkil etilishidan keyingina hisoblanishi mumkin. Shuning uchun aktuar hisob-kitoblar yordamida sug'urta xizmatining narxini birlamchi belgilash sug'urta kompaniyasiga netto-fondining zarur miqdorini shakllantirish va iste'molchi oldidagi o'z majburiyatlarini bajarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bazilevich V.D., Bazilevich K.S. Straxova sprava. – 4-te vid., pererob. i dop. - K.: Znannya, 2005. – 351 s.
2. Boev H.I., Boeva J.B. Valyuta, kredit, moliya va sug'urta muammolari. O'quv qo'llanma. – T.: Mehnat, 1998. – 116 b.
3. Gomelya V.B., Gulenti D.S. Straxovoy marketing (Aktualnie voprosi metodologii, teorii i praktiki). Vtoroe izdanie. – M.: «Ankil», 2000. – 128 s.
4. Efimov S. L. Ensiklopedicheskiy slovar: Ekonomika i straxovanie. - M.: Serix-PEL, 1996. - 528 b.
5. Ermasov S.V., Ermasova N.B. Straxovanie: Ucheb. posobie dlya vuzov. – M.: YunITI-DANA, 2004. – 462 s.
6. Zagorodniy A.G., Voznyuk G.L. Straxovanie: Terminologicheskiy slovar. 2-e dopolnennoe izdanie. – Lvov: Vidavnistvo "Beskid Bit", 2002. – 104 s.
7. Abduraxmonov I.X., Kazanseva A.K., Nosirova G.A. Teoriya i praktira straxovaniya. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya-iqtisod, 2018. – 425 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>